



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 40 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
Bahromova Muhayyo Imomqul qizi	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
Azimov I. T., Daminova F. A.	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
Abdunazarov Bobir Normurodovich	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
Jumayeva Ra'no To'ychi qizi	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna	

RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING O'QUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Jumayeva Ra'no To'ychi qizi

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning o'quv faoliyatini raqamli ta'lim resurslari asosida takomillashtirishning nazariy-metodik jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli kontent, elektron sillabus, ta'lim platformalari, adaptiv topshiriqlar, elektron baholash hamda analitik monitoring vositalarining talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati, akademik mas'uliyati va o'zini o'zi boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlash va o'quv natijalarini samarali nazorat qilish mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, raqamli ta'lim resurslari, o'quv faoliyati, mustaqil ta'lim, elektron sillabus, akademik mas'uliyat, elektron baholash, analitik monitoring, adaptiv topshiriqlar, ta'lim platformalari.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological aspects of improving students' learning activities in the credit-module system through digital educational resources. The study highlights the didactic potential of digital content, electronic syllabi, educational platforms, adaptive assignments, e-assessment, and learning analytics in developing students' independent learning skills, academic responsibility, and self-regulation competencies. Furthermore, the article substantiates mechanisms for forming individual learning trajectories, ensuring transparency in the educational process, and effectively monitoring learning outcomes within a digital learning environment.

Key words: credit-module system, digital educational resources, learning activity, independent learning, electronic syllabus, academic responsibility, e-assessment, learning analytics, adaptive assignments, educational platforms.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методические аспекты совершенствования учебной деятельности студентов в условиях кредитно-модульной системы на основе цифровых образовательных ресурсов. Освещаются дидактические возможности цифрового контента, электронного курса, образовательных платформ, адаптивных заданий, электронного оценивания и аналитического мониторинга в развитии самостоятельной учебной деятельности, академической ответственности и навыков саморегуляции студентов. Кроме того, обоснованы механизмы формирования индивидуальной образовательной траектории, обеспечения прозрачности образовательного процесса и эффективного контроля результатов обучения в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, цифровые образовательные ресурсы, учебная деятельность, самостоятельное обучение, электронный курс, академическая ответственность, электронное оценивание, аналитический мониторинг, адаптивные задания, образовательные платформы.

KIRISH

Kredit-modul tizimi oliy ta'limda o'quv jarayonini fanlar hajmi, ta'lim natijalari, talaba yuklamasi va baholash mezonlari orqali tartibga soladigan akademik-pedagogik mexanizmdir. O'zbekiston oliy ta'limida mazkur tizimni bosqichma-bosqich joriy etish Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori bilan mustahkamlangan. Nizomda kreditning o'quv yuklamasi, fanlar katalogi, ta'lim dasturi, akademik mobillik, kreditlarni tan olish hamda mustaqil ish ulushi kabi birliklar belgilangan [1].

Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish hamda mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [2]. Shu asosda kredit-modul tizimi faqat kredit hisoblash tartibi emas, balki talabaning o'quv faoliyatini rejalashtirish, boshqarish, baholash va tahlil qilishga yo'naltirilgan pedagogik muhit sifatida talqin etiladi.

ECTS Users' Guide kreditlarni o'quv natijalari va ularga mos mehnat hajmi bilan bog'laydi, bunda 60 kredit bir o'quv yilining to'liq yuklamasini ifodalaydi [3]. Ushbu yondashuv talabaning individual o'quv trayektoriyasi, fan tanlovi, mustaqil tayyorgarligi, oraliq nazorat, yakuniy baholash va qayta aloqa jarayonlarini yagona tizimda



uyg'unlashtirishni talab qiladi. Raqamli ta'lim resurslari kredit-modul tizimining mazmuniy va tashkiliy talablari bilan uyg'unlashganda, o'quv faoliyati ko'rinmas jarayondan kuzatiladigan, tahlil qilinadigan hamda pedagogik jihatdan boshqariladigan jarayonga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli ta'lim resurslari elektron darslik, videoma'ruza, ochiq ta'lim resurslari, elektron kutubxona, virtual laboratoriya, ta'lim platformasi, mobil ilova, test tizimi, elektron portfolio, forum, vebinar va o'quv analitikasi vositalarini qamrab oladi. UNESCO texnologiyani ta'limdagi har qanday muammoning avtomatik yechimi sifatida emas, balki dalillarga asoslangan, adolatli, inklyuziv va pedagogik maqsadga bo'ysundirilgan vosita sifatida qo'llash zarurligini ta'kidlaydi [4].

Muammo shundaki, amaliyotda elektron platformaga ma'ruza matnini joylashtirish, test o'tkazish yoki davomatni qayd etish ko'pincha raqamli ta'lim sifatida baholanadi. Mazkur maqolaning maqsadi kredit-modul tizimida raqamli ta'lim resurslari orqali talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari, modeli va baholash indikatorlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot nazariy-metodik maqola sifatida bajarildi. Materiallar tarkibini O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlari, kredit-modul tizimiga doir metodik qo'llanmalar, ECTS talablari, raqamli ta'lim bo'yicha xalqaro konsepsiyalar hamda UNESCO, OECD va European Commission materiallari tashkil etdi. Usmonov va Xabibullayevning qo'llanmasida sillabus, mustaqil ish, baholash, modul mazmuni va o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti tizimli yoritilgan [5].

V. O'rinovning ECTS kredit-modul tizimi haqidagi qo'llanmasi O'zbekiston oliy ta'limi uchun asosiy tushunchalar va qoidalarni izohlashi bilan ahamiyatlidir [6].

Nazariy asos sifatida Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan o'zini o'zi boshqaruvchi ta'lim konsepsiyasi hamda Biggs va Tangning konstruktiv moslik nazariyasi tahlil qilindi [7, 8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodik jarayonda tizimli tahlil, qiyosiy-normativ tahlil, kontent-tahlil, pedagogik modellashtirish va indikatorli baholash usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil kredit-modul tizimining komponentlari bilan raqamli resurslar vazifalarini yagona maydonda ko'rib chiqish imkonini berdi. Qiyosiy-normativ tahlil milliy me'yorlar bilan ECTS tamoyillarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash uchun qo'llandi. Kontent-tahlil orqali raqamli ta'lim resurslarining o'quv faoliyatiga ta'sir etuvchi funksiyalari aniqlashtirildi. Pedagogik modellashtirish esa talabaning o'quv faoliyatini takomillashtirish modelini ishlab chiqishga xizmat qildi.

Talabaning o'quv faoliyati maqsadni anglash, o'quv vazifasini rejalashtirish, resursni tanlash, topshiriqni bajarish, natijani baholash, xatolarni tuzatish va individual rivojlanish yo'nalishini belgilash jarayoni sifatida talqin qilindi. Elektron sillabus o'quv maqsadi, kredit hajmi, ta'lim natijasi, topshiriq turi va baholash mezonlarini ochib beradi. Ta'lim platformasi materialni bosqichma-bosqich yetkazadi, topshiriqlarni muddatida qabul qiladi hamda baholash natijalarini saqlaydi. Elektron kutubxona va ochiq resurslar mustaqil izlanish maydonini kengaytiradi. O'quv analitikasi esa talabaning faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati, kechikishlar, qayta urinishlar va xatolar dinamikasini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida kredit-modul tizimida raqamli ta'lim resurslari talabaning o'quv faoliyatini takomillashtirishda besh asosiy funksiyani bajarishi aniqlandi.

Birinchi funksiya maqsad va natijani aniqlashtirish bilan bog'liq. Elektron sillabus, modul xaritasi va baholash rubrikasi talabaning har bir kredit ortida qanday bilim, ko'nikma va kompetensiyalar yotganini anglashiga xizmat qiladi.

Ikkinchi funksiya mustaqil o'quv faoliyatini rejalashtirishdan iborat. Platformada haftalik vazifalar, muddatlar, resurslar, tavsiya etilgan adabiyotlar va nazorat nuqtalari ko'rsatilganda talaba o'z vaqtini ongli ravishda boshqaradi.

Uchinchi funksiya o'quv harakatini faollashtirishdir. Interaktiv topshiriqlar, vaziyatli masalalar, raqamli laboratoriyalar, muammoli savollar, kollaborativ hujjatlar va forumlar talabaning passiv qabul qilish holatini faol bilim yaratish holatiga o'tkazadi.

To'rtinchi funksiya baholash va teskari aloqani tezkorlashtirish bilan belgilanadi. Kredit-modul tizimi oraliq nazorat, joriy baholash, yakuniy baholash va mustaqil ish natijalarini aniq mezonlar asosida kuzatishni talab qiladi. Elektron testlar, rubrika asosidagi baholash, avtomatik fikr-mulohaza va o'qituvchi izohi talabaning xatolarini o'z vaqtida ko'rish imkonini beradi.

Beshinchi funksiya refleksiv tahlilga yo'naltiriladi. Elektron portfolio, shaxsiy rivojlanish xaritasi va o'zini o'zi baholash topshiriqlari talabani natija sabablarini tushunishi, keyingi modul uchun individual strategiya tanlashi hamda o'z ta'lim mas'uliyatini kuchaytirishiga ko'maklashadi.

Kredit-modul tizimida raqamli resurslar modulning ichki didaktik konstruksiyasiga kiritilgan boshqaruv vositasi sifatida ishlashi lozim. Quyidagi jadval talabani o'quv faoliyati komponentlari, ularga mos raqamli resurslar va baholash indikatorlarini yagona tizimda ko'rsatadi.

1-jadval: **Raqamli resurslar orqali o'quv faoliyatini takomillashtirish indikatorlari**

Komponent	Raqamli resurs	Pedagogik vazifa	Indikator
Maqsadni anglash	Elektron sillabus, modul xaritasi	Kredit, natija va baholash mezonini ochish	Talaba topshiriq maqsadini izohlay oladi
Rejalashtirish	LMS kalendar, haftalik jadval	Vaqt va yuklamani taqsimlash	Topshiriqlar muddatida topshiriladi
Faol bajarish	Interaktiv topshiriq, virtual laboratoriya	Bilimni amaliy harakatga ko'chirish	Yechim sifati va dalillash kuchayadi
Kommunikatsiya	Forum, vebinar, kollaborativ hujjat	Akademik muloqot va hamkorlikni rivojlantirish	Dalil, savol va fikr almashuvi ortadi
Baholash	Elektron test, rubrika, feedback	Natijani mezon asosida aniqlash	Xato turi va o'zlashtirish darajasi ko'rinadi
Refleksiya	Elektron portfolio, o'zini baholash	Keyingi o'quv strategiyasini belgilash	Talaba natija sababini tahlil qiladi

Jadvaldan ko'rinadiki, raqamli resurs samaradorligi uning nomi yoki texnik ko'rinishi bilan emas, balki talabani aniq o'quv harakatiga bog'langanligi bilan belgilanadi. Elektron sillabus modul bo'yicha akademik shart-noma vazifasini bajaradi. Unda har bir mavzu bo'yicha o'quv natijasi, kreditga mos mehnat hajmi, mustaqil ish shakli, baholash mezon va tavsiya etilgan resurslar aniqlashtirilsa, talaba o'quv vazifasini oldindan ko'ra oladi. Platforma kalendar vaqt boshqarish qobiliyatini faollashtiradi. Forum va kollaborativ hujjatlar o'quv kommunikatsiyasini tashkil qiladi. Elektron portfolio semestr davomida shakllangan bilim, ko'nikma, loyiha, xato tahlili va refleksiyani jamlaydi.

Taklif etilayotgan model to'rt blokdan iborat. Maqsadli blok kredit-modul tizimidagi ta'lim natijalari, fan kompetensiyalari va mustaqil ish hajmini aniqlaydi. Mazmuniy blok raqamli resurslarni mavzu, modul, topshiriq va baholash mezonlariga moslashtiradi. Jarayonli blok talabani o'quv faoliyatini rejalashtirish, bajarish, muhokama qilish, baholash va tuzatish bosqichlari orqali tashkil etadi. Diagnostik blok esa o'quv analitikasi, rubrika, elektron portfolio va o'zini o'zi baholash natijalari asosida rivojlanish darajasini aniqlaydi. Modelda o'qituvchi asosiy axborot manbai emas, balki o'quv faoliyatini loyihalovchi, yo'naltiruvchi, tahlil qiluvchi va individual yordam ko'rsatuvchi metodik subyekt sifatida qatnashadi.

Takomillashtirish natijasi to'rt mezon orqali baholanishi mumkin. Kognitiv mezon talabani modul natijalarini tushunishi, asosiy tushunchalarni izohlashi, axborotni tahlil qilishi va manbalar bilan ishlash saviyasini bildiradi. Operatsion-faoliyat mezon topshiriqni bajarish, raqamli resurslardan maqsadli foydalanish, muammoli vaziyatni hal qilish va o'quv mahsulotini yaratish ko'nikmalarini aks ettiradi. Motivatsion-mas'uliyat mezon talabani muddatlarga rioya qilishi, mustaqil tayyorgarlikka munosabati, akademik halolligi va natijaga intilishida namoyon bo'ladi. Refleksiv-regulyativ mezon esa xato sabablarini tahlil qilish, o'zlashtirishdagi bo'shliqlarni aniqlash, keyingi o'quv strategiyasini tuzish va o'z faoliyatini boshqarish darajasini ifodalaydi.

Kredit-modul tizimida talabani o'quv faoliyatini takomillashtirish raqamli resurslarni ko'paytirish bilan cheklanmaydi. Ko'p platformali ta'lim muhitida materiallar sonining ortishi talabani bilimni avtomatik tarzda oshirmaydi. Pedagogik natija resurs tanlovi, topshiriq konstruksiyasi, baholash mezon va teskari aloqa sifatiga bog'liq. Konstruktiv moslik nazariyasiga ko'ra, kutilayotgan ta'lim natijasi, o'quv faoliyati va baholash bir-biriga mos kelgandagina sifatli o'zlashtirish yuzaga keladi [8].

Kredit-modul tizimida mazkur moslik elektron sillabus, modul xaritasi, raqamli topshiriq va rubrika orqali namoyon bo'lishi kerak. Talaba nimani, qanday resurs orqali, qaysi muddatda va qanday mezon asosida bajarishini oldindan bilsa, o'quv faoliyatidagi noaniqlik kamayadi.

Raqamli resurslardan foydalanishda talabani o'zini o'zi boshqaruvchi ta'lim ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Zimmerman talabani o'z o'quv maqsadini belgilashi, jarayonni kuzatishi va natijani baholashini akademik muvaffaqiyatning muhim sharti sifatida ko'rsatadi [7].



Kredit-modul tizimida mustaqil ish ulushi yuqori bo'lganligi sababli, raqamli muhit aynan o'zini o'zi boshqarish mexanizmini kuchaytirishi lozim. Platformadagi kalendar, progress paneli, elektron eslatma, qayta topshirish imkoniyati, individual feedback va portfolio talabani o'z faoliyatini nazorat qilishiga yordam beradi. Biroq nazoratning haddan tashqari avtomatlashtirilishi tashqi bahoga qaramlikni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun raqamli monitoring refleksiya, maslahat va o'qituvchi bilan muloqot orqali to'ldirilishi zarur.

Raqamli ta'lim resurslarining samaradorligi institutsional shartlarga ham bog'liq. Fanlar katalogi, sillabuslar bazasi, elektron kutubxona, plagiatni tekshirish vositasi, yagona baholash rubrikalari, akademik maslahat xizmati, o'qituvchilarning raqamli-metodik tayyorgarligi va texnik infratuzilma yagona tizimda ishlamas, alohida platforma kutilgan natijani bermaydi. UNESCO ICT Competency Framework o'qituvchining raqamli kompetensiyasini nafaqat texnik ko'nikma, balki pedagogik integratsiya, baholash, ta'lim siyosati va kasbiy rivojlantirish bilan bog'liq kompleks malaka sifatida tavsiflaydi [9]. Demak, talabani o'quv faoliyatini takomillashtirish o'qituvchining raqamli resursni metodik jihatdan loyihalash qobiliyatiga bevosita bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish raqamli resurslarni ta'lim jarayoniga qo'shishdan ko'ra murakkabroq didaktik vazifadir. Tahlillar raqamli resurslar ta'lim natijasi, kredit yuklamasi, mustaqil ish, baholash mezonlari va teskari aloqa bilan bog'langandagina pedagogik ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Elektron sillabus, ta'lim platformasi, interaktiv topshiriq, elektron test, forum, virtual laboratoriya, elektron kutubxona va portfolio talabani maqsadni anglash, rejalashtirish, faol bajarish, baholash va refleksiya qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Taklif etilgan modelda raqamli ta'lim resurslari maqsadli, mazmuniy, jarayonli va diagnostik bloklar orqali kredit-modul tizimining ichki talablariga moslashtiriladi. Natijani baholash uchun kognitiv, operatsion-faoliyat, motivatsion-mas'uliyat va refleksiv-regulyativ mezonlar ajratildi. Mazkur mezonlar o'quv faoliyatini faqat ball yig'ish jarayoni sifatida emas, balki talabani akademik mustaqilligi, mas'uliyatli o'quv pozitsiyasi va o'zini o'zi boshqaruvchi ta'lim subyekti sifatida rivojlanishini aniqlashga yordam beradi. Raqamli resurslar pedagogik maqsadga bo'ysundirilgan, metodik jihatdan asoslangan va baholash tizimi bilan uyg'unlashgan sharoitda kredit-modul tizimining sifatini oshiruvchi muhim omilga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2019.
3. European Commission. ECTS Users' Guide 2015. - Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2015. - 108 p.
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education - A Tool on Whose Terms? - Paris: UNESCO Publishing, 2023. - 435 p.
5. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Tafakkur, 2020. - 120 b.
6. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar: o'quv qo'llanma. - Nyu-Bransvik universiteti, 2020. - 160 b.
7. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. - 2002. - Vol. 41, № 2. - P. 64-70.
8. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. - 4th ed. - Maidenhead: Open University Press, 2011. - 389 p.
9. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. - Paris: UNESCO Publishing, 2018. - 64 p.
10. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem.- Paris: OECD Publishing, 2023. - 280 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.